O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

OLIY MATEMATIKA

BIR O‘ZGARUVCHILI FUNKSIYANING

DIFERENSIAL HISOBI. AMALIY MASHG’ULOTDAN

USLUBIY QO’LLANMA

Toshkent 2019

Tuzuvchilar: Bekchonov Sh.E., Mardanov A.P. Bir o‘zgaruvchili funksiyaning differensial hisobi. Amaliy mashg’ulotdan uslubiy qo‘llanma. Toshkent: ToshDTU, 2019. 109 b.

Ushbu uslubiy qo‘llanma Toshkent davlat texnika universitetining quyi kurs talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, oliy matematika fanining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan limitlar, differensial tushunchasi hamda hosila yordamida yechiladigan masalalar haqida asosiy tushunchalar beriladi, bundan tashqari talabalarning mustaqil ishlashlari uchun mustaqil ish variantlari keltirilgan.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga muvofiq chop etildi

Taqrizchilar: Teshaboyev J.K. (O‘zMU), f.-m.f.n., dots.

Yuldashev A. (TDTU) - f.-m.f.n., dots.

K I R I S H

Mazkur uslubiy qo‘llanma Toshkent davlat texnika universiteti Oliy matematika fanining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, limitlar nazariyasi, bir o‘zgaruvchili funksiyaning differensiali haqida to‘la tushunchalarni o‘z ichiga qamrab oladi, shu bilan bir qatorda differensialga keladigan ayrim fizik va mexanik masalalar ustida mukammal to‘xtalib o‘tiladi. Hosilani hisoblash usullari isbotlari bilan berilgan. Talabalar bilimlarini puxtalash maqsadida uslubiy qo‘llanmada mustaqil ish variantlari ham keltirilgan.

FUNKSIYA. LIMITLAR NAZARIYASI

1. Sonli ketma-ketlik va uning limiti.

Matematik analizning asosiy amallaridan biri limitga o‘tish amalidir. Bu amal analiz kursida turli ko‘rinishlarda uchraydi. Bu bobda o‘zgaruvchi miqdorninglimiti tushunchasiga asoslangan sodda ko‘rinishlar ko‘riladi.

Agar masala shartida berilgan miqdor har xil sonli qiymatlarni qabul qilsa, bu miqdor o‘zgaruvchi miqdor deyiladi.

1-ta’rif. *Agar har bir* $n \in N$ *natural songa biror qonun yoki qoidaga ko‘ra bitta* x_n *haqiqiy son mos qo‘yilgan bo‘lsa,* $x_1, x_2, \ldots, x_n, \ldots$ *sonli ketma-ketlik berilgan deyiladi va u* $\{x_n\}$ *kabi belgilanadi.*

$x_n \quad (n = 1, 2, \ldots)$ miqdorlar $\{x_n\}$ ketma-ketlikning hadlari deyiladi.

$\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ ketma-ketliklar berilgan bo‘lsa,

$$\{x_n + y_n\} = \{x_1 + y_1,\ x_2 + y_2, \ldots\},$$

$$\{x_n - y_n\} = \{x_1 - y_1,\ x_2 - y_2, \ldots\},$$

$$\{x_n \cdot y_n\} = \{x_1 \cdot y_1,\ x_2 \cdot y_2, \ldots\},$$

$$\left\{\frac{x_n}{y_n}\right\} = \left\{\frac{x_1}{y_1}, \frac{x_2}{y_2}, \ldots\right\} \quad (y_n \neq 0,\ n = 1, 2, \ldots)$$

ketma-ketliklarga mos ravishda $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ ketma-ketliklarning **yig’indisi, ayirmasi, ko‘paytmasi va nisbati** deyiladi.

2-ta’rif. *Agar* $\exists M \ (\exists m)$ *son mavjud bo‘lsaki,* $\forall n \in N$ *uchun* $x_n \leq M \ (x_n \geq m)$ *tengsizlik o‘rinli bo‘lsa,* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik yuqoridan (quyidan) chegaralangan deyiladi. Aks holda esa, ya’ni* $\forall M \ (\forall m)$ *son olinganda ham* $\exists n \in N$ *son mavjud bo‘lsaki,* $x_n > M \ (x_n < m)$ *bo‘lsa,* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik **yuqoridan (quyidan) chegaralanmagan** deyiladi.*

3-ta’rif. *Agar* $\exists M > 0$ *son mavjud bo‘lsaki,* $\forall n \in N$ *uchun* $|x_n| \leq M$ *bo‘lsa,* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik* ***chegaralangan*** *deyiladi. Aks holda esa, ya’ni* $\forall M > 0$ *son* *olinganda ham* $\exists n \in N$ *son topilsaki* $|x_n| > M$ *bo'lsa,* $\{x_n\}$ ***chegaralanmagan ketma-ketlik*** *deyiladi.*

4-ta'rif. *Berilgan* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik uchun shunday* a *son topilib,* $\forall \varepsilon > 0$ *son olinganda ham* $\exists n_0 = n_0(\varepsilon, a) \in N$ *son mavjud bo'lsaki,* $n > n_0$ *tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha natural sonlar uchun* $|x_n - a| < \varepsilon$ *tengsizlik o'rinli bo'lsa,* a *son* $\{x_n\}$ *ketma-ketlikning* ***limiti*** *deyiladi va* $\lim_{n \to \infty} x_n = a$ *ko'rinishda belgilanadi.*

Agar 4-ta'rifdagi shartni qanoatlantiruvchi a son mavjud bo'lmasa, $\{x_n\}$ ketma-ketlik **limitga ega emas** deyiladi.

5-ta'rif (4-ta'rifning inkori). *Agar* $\forall n_0 \in N$ *son olinganda ham* $\exists \varepsilon > 0,\ \exists n > n_0$ *son topilsaki,* $|x_n - a| \geq \varepsilon$ *bo'lsa,* a *son* $\{x_n\}$ *ketma-ketlikning* ***limiti emas*** *deyiladi va* $\lim_{n \to \infty} x_n = a$ *ko'rinishda belgilanadi.*

6-ta'rif. *Agar* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik chekli limitga ega bo'lsa, bu ketma-ketlik* ***yaqinlashuvchi*** *deyiladi. Aks holda bu ketma-ketlik* ***uzoqlashuvchi*** *deyiladi.*

2. Cheksiz kichik va cheksiz katta ketma-ketliklar

1-ta'rif. *Agar* $\{x_n\}$ *ketma-ketlikning limiti nolga teng (*$\lim_{n \to \infty} x_n = 0$*) bo'lsa,* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik* ***cheksiz kichik*** *ketma-ketlik deyiladi.*

2-Ta'rif. *Agar* $\forall M > 0$ *son olinganda ham* $\exists n_0 \in N$ *son mavjud bo'lsaki,* $\forall n > n_0$ *natural sonlar uchun* $|x_n| > M$ *tengsizlik o'rinli bo'lsa,* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik* ***cheksiz katta*** *ketma-ketlik deyiladi.*

Agar $\{x_n\}$ cheksiz katta ketma-ketlik bo'lsa, $\lim_{n \to \infty} x_n = \infty$ ko'rinishda yoziladi. Agar $\{x_n\}$ cheksiz katta ketma-ketlik bo'lib, biror nomerdan boshlab barcha hadlari **musbat (manfiy)** bo'lsa, $\lim_{n \to \infty} x_n = +\infty$ $\left(\lim_{n \to \infty} x_n = -\infty\right)$ ko'rinishda yoziladi.

Har qanday cheksiz katta ketma-ketlik chegaralanmagan bo'ladi, lekin bu tasdiqning teskarisi har doim ham o'rinli bo'lavermaydi.

1-teorema. *Chekli sondagi cheksiz kichik ketma-ketliklar yig'indisi cheksiz kichik ketma-ketlik bo'ladi.*

2-teorema. *Chegaralangan ketma-ketlik bilan cheksiz kichik ketma-ketlik ko'paytmasi cheksiz kichik ketma-ketlik bo'ladi.*

3-teorema. *Agar* $\forall n \in N$ *uchun* $x_n \neq 0$ *bo'lib,* $\{x_n\}$ *- cheksiz katta (cheksiz kichik) ketma-ketlik bo'lsa, u holda* $\left\{\frac{1}{x_n}\right\}$ *cheksiz kichik (cheksiz katta) ketma-ketlik bo'ladi.*

4-teorema. $\lim\limits_{n\to\infty} x_n = a$ *bo'lishi uchun* $\{\alpha_n\} = \{x_n - a\}$ *ketma-ketlikning cheksiz kichik ketma-ketlik bo'lishi zarur va yetarlidir.*

3. Yaqinlashuvchi ketma-ketliklarning xossalari

1-teorema. *Agar* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lsa, uning limiti yagona bo'ladi.*

2-**teorema**. *Agar* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lsa, u chegaralangan bo'ladi.*

3-**teorema**. *Agar* $\{x_n\}$ *va* $\{y_n\}$ *ketma-ketliklar yaqinlashuvchi bo'lsa, u holda* $\{x_n \pm y_n\}$, $\{x_n \cdot y_n\}$ *ketma-ketliklar ham yaqinlashuvchi bo'ladi va*

$$\lim_{n\to\infty}(x_n \pm y_n) = \lim_{n\to\infty} x_n \pm \lim_{n\to\infty} y_n,$$

$$\lim_{n\to\infty}(x_n \cdot y_n) = \lim_{n\to\infty} x_n \cdot \lim_{n\to\infty} y_n$$

formulalar o'rinli bo'ladi.

4-teorema. *Agar* $\{x_n\}$ *va* $\{y_n\}$ *ketma-ketliklar yaqinlashuvchi bo'lib,* $\forall n \in N$ *uchun* $y_n \neq 0$ *va* $\lim\limits_{n\to\infty} y_n \neq 0$ *bo'lsa,* $\left\{\frac{x_n}{y_n}\right\}$ *ketma-ketlik ham yaqinlashuvchi bo'ladi va*

$$\lim_{n\to\infty} \frac{x_n}{y_n} = \frac{\lim\limits_{n\to\infty} x_n}{\lim\limits_{n\to\infty} y_n}$$

formula o'rinli bo'ladi.

5-teorema. *Agar* $\lim_{n\to\infty} x_n = a$ *bo'lib, biror nomerdan boshlab* $x_n \geq c$ $(x_n \leq c)$ *bo'lsa, u holda* $a \geq c$ $(a \leq c)$ *bo'ladi.*

6-teorema. ***(«Ikki mirshab haqidagi teorema»).*** *Agar* $\lim_{n\to\infty} x_n = a$, $\lim_{n\to\infty} y_n = a$ *bo'lib, biror nomerdan boshlab* $x_n \leq z_n \leq y_n$ *tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda* $\lim_{n\to\infty} z_n = a$ *bo'ladi.*

Agar $\lim_{n\to\infty} x_n = 0$, $\lim_{n\to\infty} y_n = 0$ bo'lsa, $\lim_{n\to\infty} \frac{x_n}{y_n}$ ga $\frac{0}{0}$ ko'rinishdagi aniqmaslik deyiladi. $\frac{\infty}{\infty}$, $0\cdot\infty$, $\infty-\infty$ va boshqa ko'rinishdagi aniqmasliklar ham shu kabi ta'riflanadi.

Monoton ketma-ketliklar va ularning limiti

1-Ta'rif. *Agar* $\{x_n\}$ *ketma-ketlikning hadlari* $\forall n \in N$ *uchun* $x_n \leq x_{n+1}$ $(x_n \geq x_{n+1})$ *tengsizlikni qanoatlantirsa* $\{x_n\}$ ***o'suvchi (kamayuvchi)*** *ketma-ketlik deyiladi.*

2-Ta'rif. *O'suvchi va kamayuvchi ketma-ketliklar* ***monoton*** *ketma-ketliklar deb ataladi.*

1-teorema. *Agar* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik o'suvchi bo'lib, yuqoridan chegaralangan bo'lsa, u holda u yaqinlashuvchi bo'ladi.*

2-teorema. *Agar* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik kamayuvchi bo'lib, quyidan chegaralangan bo'lsa, u holda u yaqinlashuvchi bo'ladi.*

Fundamental ketma-ketliklar

1-ta'rif. *Agar* $\forall \varepsilon > 0$ *son olinganda ham* $\exists n_0 = n_0(\varepsilon) \in N$ *son mavjud bo'lsaki,* $\forall n > n_0$ *va* $p \in N$ *sonlar uchun* $|x_{n+p} - x_n| < \varepsilon$ *tengsizlik bajarilsa,* $\{x_n\}$ ***fundamental ketma-ketlik deyiladi.***

2-ta'rif. *(1-ta'rifning inkori).* $\forall n_0 \in N$ *son olinganda ham shunday* $n > n_0$, $p \in N,\ \varepsilon > 0$ *sonlar mavjud bo'lib,* $|x_{n+p} - x_n| \geq \varepsilon$ *tengsizlik o'rinli bo'lsa,* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik* ***fundamental emas*** *deyilali.*

Teorema (Koshi). *Ketma-ketlikning yaqinlashuvchi bo'lishi uchun uning fundamental bo'lishi zarur va yetarlidir.*

Qismiy ketma-ketliklar. Ketma-ketlikning yuqori va quyi limitlari

$\{x_n\}$ ketma-ketlik berilgan bo'lib, $k_1, k_2, \ldots, k_n, \ldots\ (k_n \geq n)$ o'suvchi natural sonlar ketma-ketligi bo'lsin. $\{x_n\}$ ketma-ketlikning $k_1, k_2, \ldots, k_n, \ldots$ nomerli hadlaridan $x_{k_1}, x_{k_2}, \ldots, x_{k_n}, \ldots$ ketma-ketlikni tuzamiz. Hosil bo'lgan $\{x_{k_n}\}$ sonli ketma-ketlik $\{x_n\}$ ketma-ketlikning **qismiy ketma-ketligi** deb ataladi.

1-teorema. *Agar* $\lim\limits_{n\to\infty} x_n = a$ *bo'lsa, u holda uning har qanday qismiy ketma-ketligining limiti ham* a *ga teng bo'ladi.*

2-teorema. ***(Bolsano-Veyershtrass).*** *Agar* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik chegaralangan bo'lsa, u holda bu ketma-ketlikdan yaqinlashuvchi bo'lgan qismiy ketma-ketlik ajratish mumkin.*

1-ta'rif. $\{x_n\}$ *ketma-ketlikning qismiy ketma-ketligi limiti* $\{x_n\}$ *ketma-ketlikning* ***qismiy limiti*** *deb ataladi.*

2-ta'rif. *Yuqoridan (quyidan) chegaralangan ketma-ketlik qismiy limitlarining eng kattasi (eng kichigi) berilgan ketma-ketlikning* ***yuqori (quyi)*** *limiti deyiladi va* $\overline{\lim\limits_{n\to\infty}} x_n$ $\left(\underline{\lim\limits_{n\to\infty}} x_n\right)$ *ko'rinishda belgilanadi.*

3-teorema. $\lim\limits_{n\to\infty} x_n = a$ *bo'lishi uchun* $\overline{\lim\limits_{n\to\infty}} x_n = \underline{\lim\limits_{n\to\infty}} x_n = a$ *bo'lishi zarur va yetarli.*

4. Funksiya tushunchasi. Funksiya limiti

Bizga biror $X \subset R$ to'plam berilgan bo'lib, x o'zgaruvchi miqdor X to'plamdan olingan bo'lsin. Agar har bir $x \in X$ songa biror qonun yoki qoidaga ko'ra bitta y son mos qo'yilsa, u holda X to'plamda **funksiya** aniqlangan deyiladi va $y = f(x)$ kabi belgilanadi, x o'zgaruvchiga **erkli**

o‘zgaruvchi (yoki funksiyaning argumenti), X to‘plam $f(x)$ funksiyaning **aniqlanish sohasi**, x soniga mos keluvchi y soniga esa funksiyaning x nuqtadagi **xususiy qiymati** deb ataladi. $f(x)$ funksiyaning barcha xususiy qiymatlar to‘plami Y ga $f(x)$ funksiyaning **qiymatlar to‘plami** (yoki **o‘zgarish sohasi**) deyiladi. Shunday qilib,

$$Y = \{y \in R:\ y = f(x),\ x \in X\}$$

Agar a ($a \in X$ ёки $a \notin X$) nuqtaning ixtiyoriy atrofida X to‘plamning a dan farqli kamida bitta nuqtasi bo‘lsa, u holda a nuqta X to‘plamning **limit nuqtasi** deyiladi.

Bundan keyin butun paragraf davomida X - $f(x)$ funksiyaning aniqlanish sohasi, a nuqta X to‘plamning limit nuqtasi deb tushuniladi.

1-ta’rif. (Koshi). *Agar* $\forall \varepsilon > 0$ *uchun* $\exists \delta = \delta(\varepsilon, a) > 0$ *topilsaki,* $0 < |x - a| < \delta$ *tengsizlikni qanoatlantiruvchi* $\forall x \in X$ *uchun* $|f(x) - b| < \varepsilon$ *tengsizlik bajarilsa, u holda* b *soni* $f(x)$ *funksiyaning* a ***nuqtadagi limiti*** *deyiladi va* $\lim\limits_{x \to a} f(x) = b$ *kabi belgilanadi.*

2-ta’rif. (Geyne). *Agar* X *to‘plamning nuqtalaridan tuzilgan,* a *ga intiluvchi* $\forall \{x_n\}$ $(x_n \neq a,\ n = 1, 2, \ldots)$ *ketma-ketlik uchun* $\{f(x_n)\}$ *ketma-ketlik hamma vaqt yagona* b *soniga intilsa, shu* b *soni* $f(x)$ *funksiyaning* a ***nuqtadagi limiti*** *deb ataladi.*

Keltirilgan ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, funksiyaning a nuqtadagi limiti mavjud bo‘lishi uchun funksiya a nuqtada aniqlangan bo‘lishi, ya’ni $a \in X$ bo‘lishi, mutlaqo shart emas (a nuqtaning X to‘plam uchun limit nuqta bo‘lishi yetarli, ya’ni, umuman olganda, $a \notin X$).

Endi 1-va 2-ta’riflarga teskari ta’riflarni keltiramiz.

1-ta’rifning inkori. *Agar* $\exists \varepsilon > 0$ *topilsaki,* $\forall \delta > 0$ *uchun* $0 < |x - a| < \delta$ *tengsizlikni qanoatlantiruvchi* $\exists x \in X$ *mavjud bo‘lib,* $|f(x) - b| \geq \varepsilon$ *tengsizlik bajarilsa,* b *soni* $f(x)$ *funksiyaning* a ***nuqtadagi limiti emas*** *deyiladi* $\left(\lim\limits_{x \to a} f(x) \neq b\right)$.

2-ta’rifning inkori. *Agar* a *nuqtaga intiluvchi* $\exists\{x_n\}$ $(x_n \in X,\ x_n \neq a,\ n = 1, 2, \ldots)$ *ketma-ketlik topilsaki, unga mos* $\{f(x_n)\}$ *ketma-ketlik* b *ga intilmasa, u holda* b *son* $f(x)$ *funksiyaning* a ***nuqtadagi limiti emas*** *deyiladi.*

1-teorema. *Funksiya limitining 1- va 2-ta’riflari ekvivalentdir.*

Biz 1-teoremadan quyidagi xulosani chiqaramiz: funksiyaning limitini hisoblayotganda qaysi ta’rif bo‘yicha hisoblash oson va qulay bo‘lsa, shu ta’rifdan foydalanish kerak.

Ba’zi bir hollarda $f(x)$ funksiyaning a nuqtadagi limiti mavjud bo‘lmaydi. Ana shunday hollarda funksiyaning nuqtadagi **bir tomonli (o‘ng va chap)** limitlari to‘g’risida gap yuritiladi.

3-ta’rif *(Koshi).* $\forall\ \varepsilon > 0$ *uchun* $\exists\delta = \delta(a, \varepsilon) > 0$ *topilsaki,* $a < x < a + \delta$ $(a - \delta < x < a)$ *tengsizlikni qanoatlantiruvchi* $\forall x \in X$ *uchun* $|f(x) - b| < \varepsilon$ *tengsizlik bajarilsa,* b *son* $f(x)$ *funksiyaning* a *nuqtadagi* ***o‘ng (chap) limiti*** *deb ataladi va*

$$\lim_{x \to a+0} f(x) = f(a+0) = b \ \left(\lim_{x \to a-0} f(x) = f(a-0) = b\right)$$

kabi belgilanadi.

4-ta’rif *(Geyne).* a *nuqtaga intiluvchi* $\forall\{x_n\}$, $x_n \in X,\ x_n > a\ (x_n < a)$ *ketma-ketlik olinganda ham unga mos* $\{f(x_n)\}$ *ketma-ketlik* b *soniga intilsa,* b *soni* $f(x)$ *funksiyaning* a *nuqtadagi* ***o‘ng (chap) limiti*** *deyiladi.*

2-teorema. $\lim\limits_{x \to a} f(x) = b$ *bo‘lishi uchun* $f(a+0) = f(a-0) = b$ *tenglikning bajarilishi zarur va yetarli.*

Endi funksiyaning $x \to +\infty$ *dagi limiti ta’rifini beramiz.* $f(x)$ *funksiya* $(c, +\infty)$ *cheksiz oraliqda aniqlangan bo‘lsin.*

5-ta’rif. **(Koshi)**. $\forall\varepsilon > 0$ *uchun* $\exists A > 0$ $(A \geq c)$ *topilsaki,* $\forall x > A$ *uchun* $|f(x) - b| < \varepsilon$ *tengsizlik bajarilsa,* b *son* $f(x)$ *funksiyaning* $x \to +\infty$ ***dagi limiti*** *deyiladi va* $\lim\limits_{x \to +\infty} f(x) = b$ *kabi belgilanadi.*

6-ta'rif. (Geyne). $+\infty$ *ga intiluvchi* $\forall\{x_n\}$ $(x_n > c)$ *ketma-ketlik uchun unga mos* $\{f(x_n)\}$ *ketma-ketlik* b *soniga intilsa,* b *soni* $f(x)$ *funksiyaning* $x \to +\infty$ ***dagi limiti*** *deb ataladi.*

3- va 4-ta'riflar hamda 5- va 6-ta'riflar bir-biriga ekvivalent. $\lim\limits_{x\to-\infty} f(x)=b$ ning ta'rifi ham yuqoridagiga o'xshash aniqlanadi. Agar $\lim\limits_{x\to+\infty} f(x)=\lim\limits_{x\to-\infty} f(x)=b$ bo'lsa, u holda $\lim\limits_{x\to\infty} f(x)=b$ deb yoziladi.

7-ta'rif. *Agar* $\lim\limits_{x\to a} f(x)=\infty$ *(*$\lim\limits_{x\to a} f(x)=0$*) bo'lsa,* $f(x)$ *funksiya* a *nuqtada* ***cheksiz katta (cheksiz kichik) funksiya*** *deyiladi.*

Cheksiz katta va cheksiz kichik funksiyalar ham cheksiz katta va cheksiz kichik ketma-ketliklar uchun 2^0-punktda keltirilgan xossalarga ega.

5. Limitga ega bo'lgan funksiyalarning xossalari.

Birinchi va ikkinchi ajoyib limitlar

1-ta'rif. *Ushbu* $\dot{U}_\delta(a)=\{x\in R:\ 0<|x-a|<\delta\}$ *to'plam* a *nuqtaning* ***o'yilgan*** δ ***atrofi*** *deb ataladi.*

1-teorema. $f(x)$ *va* $g(x)$ *funksiyalar* a *nuqtaning biror o'yilgan atrofida aniqlangan bo'lib,* $\lim\limits_{x\to a} f(x)=b$ *va* $\lim\limits_{x\to a} g(x)=c$ *bo'lsin. U holda*

1) $\lim\limits_{x\to a}[f(a)\pm g(x)]=\lim\limits_{x\to a} f(x)\pm\lim\limits_{x\to a} g(x)=b\pm c,$

2) $\lim\limits_{x\to a}[f(a)\cdot g(x)]=\lim\limits_{x\to a} f(x)\cdot\lim\limits_{x\to a} g(x)=b\cdot c,$

3) agar $c\neq 0$ *bo'lsa,* $\lim\limits_{x\to a}\dfrac{f(x)}{g(x)}=\dfrac{\lim\limits_{x\to a} f(x)}{\lim\limits_{x\to a} g(x)}=\dfrac{b}{c}$ *bo'ladi.*

2-teorema. («Ikki mirshab haqidagi teorema»). *Agar* $f(x)$, $g(x)$ *va* $h(x)$ *funksiyalar* a *nuqtaning biror o'yilgan atrofida aniqlangan bo'lib, shu atrofda* $f(x)\le g(x)\le h(x)$ *tengsizlikni qanoatlantirsa va* $\lim\limits_{x\to a} f(x)=\lim\limits_{x\to a} h(x)=b$ *tenglik bajarilsa, u holda* $\lim\limits_{x\to a} g(x)=b$ *bo'ladi.*

Funksiya limitini hisoblashda quyidagi ajoyib limitlar katta ahamiyatga ega.

Birinchi ajoyib limit:

Teorema. $\frac{\sin x}{x}$ funksiyaning x=0 nuqtadagi limit qiymati mavjud bo‘lib, u birga teng

$$\lim_{x\to 0}\frac{\sin x}{x}=1$$

Isboti. Agar 0<x<π/2 uchun 0<sin$x$<x<tg$x$ tengsizlikning o‘rinliligidan, tengsizlikni hadma had sin$x$ ga bo‘lib

$$1<\frac{x}{\sin x}<\frac{1}{\cos x} \quad \text{yoki} \quad \cos x<\frac{\sin x}{x}<1$$

Oxirgi tengsizliklar x ning -π/2<x<0 shartini qanoatlantiruvchi qiymatlari uchun ham o‘rinlidir. Bunga ishonch hosil qilish uchun cos(x)=cos(-x) va $\frac{\sin x}{x}=\frac{\sin(-x)}{(-x)}$ ekanini ko‘zda tutish yetarli. cos$x$ uzluksiz funksiya bo‘lgani uchun $\lim_{x\to 0}\cos x=1$ bo‘ladi. Shunday qilib cos$x$, 1 va $\frac{\sin x}{x}$ funksiyalar uchun x=0 nuqtaning biror δ atrofida bir xil limit qiymatiga ega bo‘ladi.

Demak, bunda

$$\lim_{x\to 0}\frac{\sin x}{x}=\lim_{x\to 0}\cos x=1$$

Teorema isbotlandi.

Ikkinchi ajoyib limit:

Quyidagi o‘zgaruvchi miqdorni ko‘ramiz. $(1+\frac{1}{n})^n$ bunda *n* o‘suvchi o‘zgaruvchi miqdor va *n*=1, 2, 3...

Teorema. O‘zgaruvchi miqdor $(1+\frac{1}{n})^n$ *n*→∞ intilganda limit qiymati mavjud bo‘lib u 2 va 3 son orasida yotadi.

Isbot. Nyuton binomi formulasidan quyidagilarni yozish mumkin.

$$\left(1+\frac{1}{n}\right)^n=1+\frac{n}{1}\cdot\frac{1}{n}+\frac{n(n-1)}{1\cdot 2}\cdot\left(\frac{1}{n}\right)^2+\frac{n(n-1)(n-2)}{1\cdot 2\cdot 3}\cdot\left(\frac{1}{n}\right)^2+$$

$$...+\frac{n(n-1)(n-2)...[n-(n-1)]^1}{1\cdot 2\cdot,...,n}\cdot\left(\frac{1}{n}\right)^n \qquad (1)$$

(1) ifodada algebraik almashtirishlardan so‘ng

$$\left(1+\frac{1}{n}\right)^2=1+1+\frac{1}{1\cdot 2}\left(1-\frac{1}{n}\right)+\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3}\left(1-\frac{1}{n}\right)\left(1-\frac{2}{n}\right)+...$$

$$...+\frac{1}{1\cdot 2\cdot ...n}\left(1-\frac{1}{n}\right)\left(1-\frac{2}{n}\right)...\left(1-\frac{n-1}{n}\right) \qquad (2)$$

Oxirgi tenglik n ning o‘sib borishi o‘zgaruvchi miqdor $\left(1+\frac{1}{n}\right)^n$ ni o‘sib borishini ko‘rsatadi. Haqiqatan, agar *n* ni *n*+1 ga almashtirsak $\frac{1}{1\cdot 2}\left(1-\frac{1}{n}\right)<\frac{1}{1\cdot 2}\left(1-\frac{1}{n+1}\right)$ va h.x.

Bundan $\left(1+\frac{1}{n}\right)^n$ ni chegaralanganligini ko‘rsatamiz. Agar shuni e’tiborga olsak $\left(1-\frac{1}{n}\right)<1$; $\left(1-\frac{1}{n}\right)\left(1-\frac{2}{n}\right)<1$ va h.k. (2) ifodadan yozish mumkin $\left(1+\frac{1}{n}\right)^n<1+1+\frac{1}{1\cdot 2}+\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3}+...\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3....n}$

Bundan

$$\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3}<\frac{1}{2^2}; \qquad \frac{1}{1\cdot 2\cdot 3\cdot 4}<\frac{1}{2^3}; \qquad \frac{1}{1\cdot 2\cdot 3...n}<\frac{1}{2^{n-1}};$$

Shu tengsizlikni yozish mumkin

$$\left(1+\frac{1}{n}\right)^n<1+1+\frac{1}{2}+\frac{1}{2^2}+....+\frac{1}{2^{n-1}}$$

va o‘ng tarafdagi ifoda geometrik progressiyani tashkil qiladi va q=1/2 a=1 progressiyaning birinchi hadidan iborat.

Shuning uchun

$$\left(1+\frac{1}{n}\right)^n<1+\left[1+\frac{1}{2}+\frac{1}{2^2}+....+\frac{1}{2^{n-1}}\right]=1+\frac{a-aq^n}{1-q}=$$

$$=1+\frac{1-\left(\frac{1}{2}\right)^n}{1-\frac{1}{2}}=1+\left[2-\left(\frac{1}{2}\right)^{n-1}\right]<3$$

endi hamma n lar uchun

$$\left(1+\frac{1}{n}\right)^n<3$$

hosil qilamiz.

Yuqoridagi (2) dan $\left(1+\frac{1}{n}\right)^n\geq 2$

shunday qilib quyidagi tengsizlikka ega bo‘lamiz

$$2\leq\left(1+\frac{1}{n}\right)^n<3 \qquad (3)$$

Demak, (3) o‘zgaruvchi miqdor $\left(1+\frac{1}{n}\right)^n$ ning chegaralanganligini ko‘rsatadi.

Agar o‘zgaruvchi miqdor $\left(1+\frac{1}{n}\right)^n$ - o‘suvchi va chegaralangan bo‘lsa bu miqdor limit qiymatiga ega bo‘ladi va bu limitni e deb belgilaymiz. (3) tengsizlikni shunday yozish mumkin: 2≤e≤3

Bu esa teoremaning isbotini beradi.

Bunda e irratsional son va uning qiymati

e=2.7182818284... ga teng

Teorema. $f(x)=\left(1+\frac{1}{x}\right)^x$ funksiyaning $x\to\infty$ da limit qiymati mavjud va u e soniga teng.

$$\lim_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^x=e \qquad (4)$$

Isboti 1. Aytaylik $x\to+\infty$, va quyidagi shu tengsizlik o‘rinli bo‘lsa,

$$n\leq x<n+1$$

Yozish mumkin $\frac{1}{n}\geq\frac{1}{x}>\frac{1}{n+1}$.

$$1+\frac{1}{n}\geq1+\frac{1}{x}>1+\frac{1}{n+1}$$

$$\left(1+\frac{1}{n}\right)^{n+1}>\left(1+\frac{1}{x}\right)^x>\left(1+\frac{1}{n+1}\right)^n$$

Agar x→∞ da n→∞ intiladi. Endi quyidagi limitlarni topamiz:

$$\lim_{n\to+\infty}\left(1+\frac{1}{n}\right)^{n+1}=\lim_{n\to+\infty}\left(1+\frac{1}{n}\right)^n\left(1+\frac{1}{n}\right)=$$

$$\lim_{n\to+\infty}\left(1+\frac{1}{n}\right)^n\cdot\lim_{n\to+\infty}\left(1+\frac{1}{n}\right)=e\cdot1=$$

$$\lim_{n\to\infty}\left(1+\frac{1}{n+1}\right)^n=\lim_{n\to+\infty}\frac{\left(1+\frac{1}{n+1}\right)^{n+1}}{1+\frac{1}{n+1}}=\frac{\lim\limits_{n\to+\infty}\left(1+\frac{1}{n+1}\right)^{n+1}}{\lim\limits_{n\to+\infty}\left(1+\frac{1}{n+1}\right)}=\frac{e}{1}=e$$

Demak shularga asosan,

$$\lim_{x\to+\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^x=e \qquad (5)$$

2. Aytaylik, endi $x\to-\infty$. Agar yangi o‘zgaruvchi $t=-(x+1)$ olsak yoki $x=-(t+1)$ desak, $t\to+\infty$ da $x\to-\infty$ bo‘ladi.

Yozish mumkin:

$$\lim_{x\to-\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^x=\lim_{t\to+\infty}\left(1-\frac{1}{t+1}\right)^{-t-1}=\lim_{t\to+\infty}\left(\frac{t}{t+1}\right)^{-t-1}=\lim_{t\to+\infty}\left(\frac{t+1}{t}\right)^{t+1}=$$

$$\lim_{t\to\infty}\left(1+\frac{1}{t}\right)^{t+1}=\lim_{t\to\infty}\left(1+\frac{1}{t}\right)^t\cdot\left(1+\frac{1}{t}\right)=e\cdot1=e$$

Oxirgi ifoda teoremani isbotini beradi.

Agar (5) da $1/x=\alpha$ bo‘lsa $x\to\infty$ da $\alpha\to0$ ($\alpha\neq0$) va shuni hosil qilamiz

$$\lim_{\alpha\to0}(1+\alpha)^{1/\alpha}=e$$

Funksiya limiti uchun Koshi teoremasi

$f(x)$ funksiya X to‘plamda berilgan bo‘lib, a nuqta X to‘plamning limit nuqtasi bo‘lsin.

Ta’rif. *Agar* $\forall\varepsilon>0$ *uchun* $\exists\delta>0$ *topilsaki, argument* x *ning* $0<|x'-a|<\delta$, $0<|x''-a|<\delta$ *tengsizlikni qanoatlantiruvchi* $\forall x', x''$ $(x'\in X, x''\in X)$ *qiymatlarida* $|f(x'')-f(x')|<\varepsilon$ *tengsizlik o‘rinli bo‘lsa,* $f(x)$ *funksiya uchun* a ***nuqtada Koshi sharti bajariladi*** *deyiladi.*

Ta'rifning inkori. Agar $\exists\varepsilon>0$ son topilsaki, $\forall\delta>0$ son uchun, $0<|x'-a|<\delta,\ \ 0<|x''-a|<\delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi $\forall x',x''\in X$ lar mavjud bo'lib, $|f(x'')-f(x')|\geq\varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, $f(x)$ funksiya uchun a **nuqtada Koshi sharti bajarilmaydi** deyiladi.

Teorema. (Koshi). $f(x)$ *funksiya* a *nuqtada chekli limitga ega bo'lishi uchun bu funksiyaning* a *nuqtada Koshi shartini bajarishi zarur va yetarlidir*.

6. Funksiyaning uzluksizligi va uzilishi

$f(x)$ funksiya a nuqtaning biror to'liq atrofida aniqlangan bo'lsin.

1-ta'rif. *Agar*

$$\lim_{x\to a} f(x)=f(a)$$

bo'lsa, $f(x)$ *funksiya* a ***nuqtada uzluksiz** deyiladi.*

Funksiya uzluksizligi ta'rifini Koshi va Geyne ta'riflari yordamida ham berish mumkin. Biz ularga to'xtalib o'tirmaymiz.

Endi $f(x)$ funksiya a nuqtaning biror o'ng (chap) yarim atrofida, ya'ni $[a,a+\delta)$ (mos ravishda, $(a-\delta,a]$) yarim intervalda aniqlangan bo'lsin.

2-ta'rif. *Agar*

$$\lim_{x\to a+0} f(x)=f(a)\ \left(\lim_{x\to a-0} f(x)=f(a)\right)$$

bo'lsa, $f(x)$ *funksiya* a ***nuqtada o'ngdan (chapdan) uzluksiz** deyiladi.*

Teorema. $f(x)$ *funksiyaning* a *nuqtada uzluksiz bo'lishi uchun uning shu nuqtada o'ngdan va chapdan uzluksiz bo'lishi zarur va yetarlidir*.

Faraz qilaylik, $f(x)$ funksiya a nuqtada uzluksiz bo'lsin. U holda $\lim\limits_{x\to a} f(x)=f(a)$ bo'ladi. $\Rightarrow \lim\limits_{x-a\to 0}[f(x)-f(a)]=0$. Agar $\Delta x:=x-a$ - argument orttirmasi va $\Delta y:=\Delta f(a)=f(x)-f(a)$ - funksiyaning a nuqtadagi orttirmasi belgilashlarini kiritsak, $x=a+\Delta x$ va $\Delta y=\Delta f(a)=f(a+\Delta x)-f(a)$ bo'ladi. Natijada, biz

$$\lim_{x-a\to 0}\left[f(x)-f(a)\right]=\lim_{\Delta x\to 0}\left[f(a+\Delta x)-f(a)\right]=\lim_{\Delta x\to 0}\Delta y=0$$

ekanligini hosil qilamiz. Shunday qilib,

$$\lim_{\Delta x\to 0}\Delta y=0$$

tenglik bajarilsa, $f(x)$ funksiya a nuqtada uzluksiz bo‘ladi.

3-ta’rif. $f(x)$ *funksiya* (c,d) *intervalning har bir nuqtasida uzluksiz bo‘lsa, funksiya* (c,d) *intervalda uzluksiz deyiladi.*

$f(x)$ funksiya (c,d) da uzluksiz bo‘lib, s nuqtada o‘ngdan, d nuqtada chapdan uzluksiz bo‘lsa, unda u $[c,d]$ kesmada uzluksiz deyiladi.

X to‘plamda uzluksiz funksiyalar sinfi $C(X)$ kabi belgilanadi.

4-ta’rif. *Agar*

$$\lim_{x\to a} f(x)=b\neq f(a) \qquad \textit{(1-hol)}$$

$$\lim_{x\to a} f(x)-\nexists \qquad \textit{(2-hol)}$$

$$\lim_{x\to a} f(x)=\infty \qquad \textit{(3-hol)}$$

bo‘lsa, unda $f(x)$ *funksiya* a ***nuqtada uzilishga ega** deyiladi.*

Funksiyaning a nuqtada uzilishga ega bo‘ladigan hollarini alohida-alohida ko‘rib chiqaylik.

a) $\lim_{x\to a} f(x)=b\neq f(a)$ **bo‘lsin.**

Bu holda $\lim_{x\to a+0} f(x)=f(a+0)$ va $\lim_{x\to a-0} f(x)=f(a-0)$ lar mavjud bo‘lib, $f(a+0)=f(a-0)\neq f(a)$ bo‘ladi. Bunday nuqta **bartaraf qilish mumkin bo‘lgan uzilish nuqtasi** deb ataladi.

Misollar.

1. $f(x)=\begin{cases} x^2, \text{agar } x\neq 0 \text{ bo'sa,} \\ 1, \text{agar } x=0 \text{ bo'lsa} \end{cases}$

funksiya uchun $x=0$ nuqta bartaraf qilish mumkin bo‘lgan uzilish nuqtasi bo‘ladi, chunki

$$\lim_{x\to a+0} f(x)=\lim_{x\to -0} f(x)=0 \text{ va } f(0)=1$$

Agar $f(0)=0$ deb qabul qilsak, funksiya uzluksiz bo‘lib qoladi.

2. $f(x)=\begin{cases} 1-x\sin\frac{1}{x}, \text{agar } x\neq 0 \text{ bo'lsa,} \\ 2, \text{agar } x=0 \text{ bo'lsa} \end{cases}$

funksiya uchun ham $x=0$ nuqta bartaraf qilish mumkin bo‘lgan uzilish nuqtasi bo‘ladi, chunki

$$\lim_{x\to a+0} f(x)=\lim_{x\to -0} f(x)=1 \text{ va } f(0)=2.$$

b) $\lim\limits_{x\to a+0} f(x)-\nexists$ bo‘lsin.

Bunda quyidagi uchta hol bo‘lishi mumkin.

1) $\lim\limits_{x\to a-0} f(x)=f(a-0)$ va $\lim\limits_{x\to a+0} f(x)=f(a+0)$ lar $\exists$ va $f(a-0)\neq f(a+0)$.

Funksiyaning bunday nuqtadagi uzilishi birinchi tur uzilish va $|f(a+0)-f(a-0)|$ ayirmaga funksiyaning a nuqtadagi sakrashi deyiladi.

Masalan,

$$f(x)=\begin{cases} \dfrac{1}{1+2^{\frac{1}{x}}}, \text{agar } x\neq 0 \text{ bo'lsa,} \\ 0, \text{agar } x=0 \text{ bo'lsa} \end{cases}$$

funksiya uchun $x=0$ nuqta 1-tur uzilish nuqtasi bo‘ladi va funksiyaning bu nuqtadagi sakrashi 1 ga teng:

$$|f(a+0)-f(a-0)|=|f(+0)-f(-0)|=|0-1|=1$$

2) $x\to a$ da $f(x)$ funksiyaning o‘ng va chap limitlaridan hech bo‘lmaganda biri $\nexists$. Funksiyaning a nuqtadagi bunday uzilishi ikkinchi tur uzilish deyiladi.

Misollar.

1. $f(x)=\begin{cases} \sin\frac{1}{x}, \text{agar } x>0 \text{ bo'lsa,} \\ \text{- x, agar } x\le 0 \text{ bo'lsa} \end{cases}$

funksiya $x=0$ nuqtada ikkinchi tur uzilishga ega, chunki

$\lim\limits_{x\to -0} f(x)=\lim\limits_{x\to -0}(-x)=0=f(0)$, lekin $\lim\limits_{x\to +0} f(x)=\lim\limits_{x\to 0}\sin\frac{1}{x}-\nexists$.

2. $D(x)=\begin{cases} 0, \text{agar } x-\text{irratsional bo'lsa,} \\ 1, \text{agar } x-\text{ratsional bo'lsa} \end{cases}$

funksiya $\forall a\in R$ nuqtada ikkinchi tur uzilishga ega, chunki $x\to a$ da $D(x)$ funksiyaning o'ng limiti ham, chap limiti ham $\nexists$.

3. $x\to a$ da $f(x)$ funksiyaning o'ng va chap limitlaridan biri cheksiz yoki o'ng va chap limitlar turli ishorali cheksiz. Funksiyaning a nuqtadagi bunday uzilishi ham **ikkinchi tur uzilish** deyiladi.

v) $\lim\limits_{x\to a} f(x)=\infty$ bo'lsa, $f(x)$ funksiya $x=a$ nuqtada **ikkinchi tur uzilishga** ega deyiladi.

7. Uzluksiz funksiyalarning xossalari

1-teorema. *Agar* $f(x)$ *va* $g(x)$ *funksiyalar* $X\subset R$ *to'plamda aniqlangan bo'lib, ularning har biri* $a\in X$ *nuqtada uzluksiz bo'lsa, u holda*

1) $f(x)\pm g(x)$,

2) $f(x)\cdot g(x)$,

3) $\frac{f(x)}{g(x)}$ *(*$\forall x\in X$ *uchun* $g(x)\neq 0$*)*

funksiyalar ham shu nuqtada uzluksiz bo'ladi.

Izoh: 1-teoremaning aksi har doim ham o'rinli bo'lavermaydi. Masalan, $f(x)=x$ va

$$g(x)=\begin{cases}\sin\frac{1}{x}, \text{ага } x\neq 0 \text{ булса,}\\ 0, \text{агар } x=0 \text{ булса}\end{cases}$$

funksiyalar ko‘paytmasi $f(x)\cdot g(x)=x\cdot\sin\frac{1}{x}$ funksiya R da uzluksiz, lekin $g(x)$ funksiya $x=0$ nuqtada uzilishga ega.

Aytaylik, $y=f(x)$ funksiya X to‘plamda, $z=\varphi(y)$ funksiya esa $Y=\{y=f(x): x\in X\}$ to‘plamda aniqlangan bo‘lib, ular yordamida X to‘plamda aniqlangan $z=\varphi[f(x)]$ murakkab funksiya tuzilgan bo‘lsin.

2-teorema. *Agar $y=f(x)$ funksiya $a\in X$ nuqtada, $z=\varphi(y)$ funksiya esa, unga mos $y_a=f(a)$ nuqtada uzluksiz bo‘lsa, $z=\varphi[f(x)]$ murakkab funksiya a nuqtada uzluksiz bo‘ladi.*

Bu teorema limit hisoblashda juda muhim rol o‘ynaydi va uning yordamida 1-§ ning 9^0 –punktidagi muhim limitlar keltirib chiqariladi.

3-teorema. *Agar $\lim\limits_{x\to a} f(x)=b$ $(b>0)$ va $\lim\limits_{x\to a} g(x)=c$ bo‘lsa, $\lim\limits_{x\to a}[f(x)]^{g(x)}=c$ bo‘ladi.*

$[f(x)]^{g(x)}$ ko‘rinishdagi funksiyaga **darajali - ko‘rsatkichli funksiya** deb ataladi.

Funksiyaning tekis uzluksizligi

Biror $y=f(x)$ funksiya X to‘plamda berilgan bo‘lsin.

Ta’rif. *Agar $\forall\varepsilon>0$ son uchun $\exists\delta=\delta(\varepsilon)>0$ son topilsaki, X to‘plamning $|x''-x'|<\delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi $\forall x'$ va x'' $(x', x''\in X)$ nuqtalarida $|f(x'')-f(x')|<\varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, $f(x)$ funksiya X to‘plamda* ***tekis uzluksiz*** *deb ataladi.*

Ta’rifning inkori. $\exists\varepsilon>0$ son topilsaki, $\forall\delta>0$ son olinganda ham $|x''-x'|<\delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi shunday $\forall x'$ $x''\in X$ nuqtalar mavjud bo‘lib $|f(x'') - f(x')| \geq \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, $f(x)$ funksiya X to‘plamda **tekis uzluksiz** emas deyiladi.

Kantor teoremasi. *Agar $f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada aniqlangan va uzluksiz bo‘lsa, u shu kesmada tekis uzluksiz bo‘ladi.*

8. Namunaviy misollar

1-misol. $\lim\limits_{n\to\infty} x_n = a$ **ekanligi ta’rif yordamida ko‘rsatilsin** $(n_0(\varepsilon)-?)$ **.**

$$x_n = \frac{2n^3}{n^3-2},\ a = 2$$

$$\triangleleft\ (\lim_{n\to\infty} x_n = a) \Leftrightarrow (\forall \varepsilon > 0\ \exists n_0 = n_0(\varepsilon) \in N : \forall n > n_0\ |x_n - a| < \varepsilon)\ .$$

$$|x_n - a| = \left|\frac{2n^3}{n^3-3} - 2\right| = \left|\frac{2n^3 - 2n^3 + 6}{n^3-3}\right| = \frac{6}{|n^3-3|} =$$

$$= \frac{6}{(n-\sqrt[3]{3})(n^2+\sqrt[3]{3}n+\sqrt[3]{3^2})} < \frac{6}{n^2+\sqrt[3]{3}n+\sqrt[3]{9}} < \frac{6}{\sqrt[3]{3}n} <$$

$$< \frac{6}{n} < \varepsilon \Rightarrow n > \frac{6}{\varepsilon} \Rightarrow n_0 = \left[\frac{6}{\varepsilon}\right]$$

Demak, $\forall \varepsilon > 0$ son olinganda ham $n_0 = \max\left\{2, \left[\frac{6}{\varepsilon}\right]\right\}$ deb olsak, $\forall n > n_0$ uchun $|x_n - a| < \varepsilon$ bo‘ladi. $\Rightarrow \lim\limits_{n\to\infty} x_n = a\ \triangleright$

2-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{n\to\infty} \frac{3n^2+2n-5}{4n^2-n+6}$.

Yechish: $\lim\limits_{n\to\infty} \frac{3n^2+2n-5}{4n^2-n+6} = \lim\limits_{n\to\infty} \frac{\frac{3n^2}{n^2}+\frac{2n}{n^2}-\frac{5}{n^2}}{\frac{4n^2}{n^2}-\frac{n}{n^2}+\frac{6}{n^2}} = \lim\limits_{n\to\infty} \frac{3+\frac{2}{n}-\frac{5}{n^2}}{4-\frac{1}{n}+\frac{6}{n^2}} = \frac{3}{4}.$

3-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{x\to 0} \frac{\sqrt{1+x^2}-1}{x}$.

Yechish: $\lim\limits_{x\to 0}\frac{\sqrt{1+x^2}-1}{x}=\left(\frac{0}{0}\right)=\lim\limits_{x\to 0}\frac{\left(\sqrt{1+x^2}-1\right)\left(\sqrt{1+x^2}+1\right)}{x\left(\sqrt{1+x^2}+1\right)}=\lim\limits_{x\to 0}\frac{\left(\sqrt{1+x^2}\right)^2-1^2}{x\left(\sqrt{1+x^2}+1\right)}=$

$$=\lim_{x\to 0}\frac{1+x^2-1}{x\left(\sqrt{1+x^2}+1\right)}=\lim_{x\to 0}\frac{x^2}{x\left(\sqrt{1+x^2}+1\right)}=\lim_{x\to 0}\frac{x}{\left(\sqrt{1+x^2}+1\right)}=\frac{0}{2}=0$$

4-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{x\to 1}\frac{x^3+x-2}{x^3-x^2-x+1}$.

Yechish: $\lim\limits_{x\to 1}\frac{x^3+x-2}{x^3-x^2-x+1}=\left(\frac{0}{0}\right)=\lim\limits_{x\to 1}\frac{x^3+x-1-1}{x^3-x^2-x+1}=\lim\limits_{x\to 1}\frac{\left(x^3-1\right)+(x-1)}{x^2(x-1)-(x-1)}=$

$$=\lim_{x\to 1}\frac{(x-1)\left(x^2+x+1\right)+(x-1)}{\left(x^2-1\right)(x-1)}=\lim_{x\to 1}\frac{(x-1)\left(x^2+x+2\right)}{(x-1)^2(x+1)}=\lim_{x\to 1}\frac{x^2+x+2}{(x-1)(x+1)}=\frac{4}{0}=\infty$$

5-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{x\to -2}\frac{x^3+3x^2+2x}{x^2-x-6}$

Yechish: $\lim\limits_{x\to -2}\frac{x^3+3x^2+2x}{x^2-x-6}=\left(\frac{0}{0}\right)=\lim\limits_{x\to -2}\frac{x\left(x^2+3x+2\right)}{x^2-x-6}=$

$$=\lim_{x\to -2}\frac{x(x+1)(x+2)}{(x-3)(x+2)}=\lim_{x\to -2}\frac{x(x+1)}{x-3}=-\frac{2}{5}$$

6-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{x\to 0}\frac{\sin 3x}{x}$.

Yechish: Birinchi ajoyib limit formulasidan foydalanamiz.

$$\lim_{x\to 0}\frac{\sin 3x}{x}=\lim_{x\to 0}\frac{\sin 3x}{3x}\cdot 3=1\cdot 3=3$$

7-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{x\to 0}\frac{1-\cos x}{x^2}$.

Yechish: $\lim\limits_{x\to 0}\frac{1-\cos x}{x^2}=\lim\limits_{x\to 0}\frac{2\sin^2\frac{x}{2}}{x^2}=2\lim\limits_{x\to 0}\left(\frac{\sin\frac{x}{2}}{\frac{x}{2}}\right)^2\cdot\frac{1}{4}=\frac{1}{2}$

8-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}\frac{1-\sin x}{\left(\frac{\pi}{2}-x\right)^2}$.

Yechish: $\lim\limits_{x\to\frac{\pi}{2}}\frac{1-\sin x}{\left(\frac{\pi}{2}-x\right)^2}=\left|\begin{array}{l}\frac{\pi}{2}-x=t\\ x=\frac{\pi}{2}-t,\ x\to\frac{\pi}{2}\ t\to 0\end{array}\right|=\lim\limits_{t\to 0}\frac{1-\sin\left(\frac{\pi}{2}-t\right)}{t^2}=$

$$=\lim_{t\to 0}\frac{1-\cos t}{t^2}=\lim_{t\to 0}\frac{2\sin^2\frac{t}{2}}{t^2}=2\lim_{t\to 0}\left(\frac{\sin\frac{t}{2}}{\frac{t}{2}}\right)^2\cdot\frac{1}{4}=2\cdot 1\cdot\frac{1}{4}=\frac{1}{2}$$

9-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{x\to 0}\left(\frac{1}{\sin x}-\frac{1}{tgx}\right)$

Yechish: $\lim\limits_{x\to 0}\left(\frac{1}{\sin x}-\frac{1}{tgx}\right)=(\infty-\infty)=\lim\limits_{x\to 0}\left(\frac{1}{\sin x}-\frac{1}{\frac{\sin x}{\cos x}}\right)=\lim\limits_{x\to 0}\left(\frac{1}{\sin x}-\frac{\cos x}{\sin x}\right)=$

$$=\lim_{x\to 0}\frac{1-\cos x}{\sin x}=\lim_{x\to 0}\frac{2\sin^2\frac{x}{2}}{\sin x}=2\lim_{x\to 0}\frac{\sin^2\frac{x}{2}}{\left(\frac{x}{2}\right)^2}\cdot\frac{x^2}{4}\cdot\frac{1}{\frac{\sin x}{x}\cdot x}=\frac{1}{2}\lim_{x\to 0}x=\frac{1}{2}\cdot 0=0$$

10-misol. $\lim\limits_{x\to\infty}\left(1+\frac{3}{x}\right)^x$ limitni hisoblang.

Yechish. Quyidagi almashtirishlarni bajaramiz va (5) da yozamiz:

$$\lim_{x\to\infty}\left(1+\frac{3}{x}\right)^x=\lim_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{\frac{x}{3}}\right)^{\frac{x}{3}\cdot 3}=\lim_{x\to\infty}\left[\left(1+\frac{1}{\frac{x}{3}}\right)^{\frac{x}{3}}\right]^3=\left[\lim_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{\frac{x}{3}}\right)^{\frac{x}{3}}\right]^3=e^3$$

11-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\frac{x}{1+x}\right)^x$.

Yechish: $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\frac{x}{1+x}\right)^{x}=\lim\limits_{x\to\infty}\left(\frac{1}{\frac{1+x}{x}}\right)^{x}=\frac{1}{\lim\limits_{x\to\infty}\left(\frac{1+x}{x}\right)^{x}}=\frac{1}{\lim\limits_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^{x}}=\frac{1}{e}$

12-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^{\frac{x+1}{x}}$.

Yechish: $\lim\limits_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^{\frac{x+1}{x}}=\lim\limits_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^{x\cdot\frac{x+1}{x^2}}=\lim\limits_{x\to\infty}e^{\frac{x+1}{x^2}}=e^{\lim\limits_{x\to\infty}\frac{x+1}{x^2}}=e^{\lim\limits_{x\to\infty}\left(\frac{1}{x}+\frac{1}{x^2}\right)}=e^{0}=1$

13-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\frac{x+1}{x-2}\right)^{2x-1}$.

Yechish: $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\frac{x+1}{x-2}\right)^{2x-1}=\lim\limits_{x\to\infty}\left(\frac{x-2+3}{x-2}\right)^{2x-1}=\lim\limits_{x\to\infty}\left(\frac{x-2}{x-2}+\frac{3}{x-2}\right)^{2x-1}=$

$\lim\limits_{x\to\infty}\left(1+\frac{3}{x-2}\right)^{2x-1}=\lim\limits_{x\to\infty}\left(1+\frac{1}{\frac{x-2}{3}}\right)^{\frac{x-2}{3}\cdot\frac{3}{x-2}\cdot(2x-1)}=\lim\limits_{x\to\infty}e^{\frac{3(2x-1)}{x-2}}=e^{\lim\limits_{x\to\infty}\frac{3(2x-1)}{x-2}}=e^{\lim\limits_{x\to\infty}\frac{6-\frac{3}{x}}{1-\frac{2}{x}}}=e^{6}$

14-misol. Limitni hisoblang: $\lim\limits_{x\to 0}\frac{\ln(a+x)-\ln a}{x}$.

Yechish: $\lim\limits_{x\to 0}\frac{\ln(a+x)-\ln a}{x}=\lim\limits_{x\to 0}\frac{\ln\frac{(a+x)}{a}}{x}=\lim\limits_{x\to 0}\frac{1}{x}\ln\frac{(a+x)}{a}=$

$=\lim\limits_{x\to 0}\ln\left(1+\frac{x}{a}\right)^{\frac{1}{x}}=\lim\limits_{x\to 0}\ln\left(1+\frac{x}{a}\right)^{\frac{a}{x}\cdot\frac{1}{a}}=\ln e^{\frac{1}{a}}=\frac{1}{a}\ln e=\frac{1}{a}$.

15-misol. $y=f(x)$ funksiya $x=x_0$ nuqtada uzluksiz ekanligi ta’rif yordamida isbotlansin ($\delta(\varepsilon)$ topilsin).

$f(x)=-2x^2-4,\ \ x_0=3$

◁ $f(x)$ funksiyani $x_0=3$ nuqtaning biror atrofida, masalan, (2; 4) intervalda qaraymiz. $\forall\varepsilon>0$ son olamiz va $|f(x)-f(x_0)|=|f(x)-f(3)|$ ayirmani baholaymiz:

$$|f(x)-f(3)|=|-2x^2-4-(-22)|=|-2x^2+18|=2|x^2-9|=$$

$$=2|x+3|\cdot|x-3|<14\cdot|x-3|.$$

Bu tenglikdan ko‘rinib turibdiki, agar $\delta=\frac{\varepsilon}{14}$ deb olsak, $|x-3|<\delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi $\forall x\in(2;\ 4)$ uchun $|f(x)-f(3)|<14|x-3|<14\delta=14\frac{\varepsilon}{14}=\varepsilon$ bo‘ladi. $\Rightarrow$ $f(x)=-2x^2-4$ funksiya $x_0=3$ nuqtada uzluksiz. ▷

9. Mustaqil yechish uchun vazifalar

$\lim\limits_{n\to\infty}x_n=a$ **(**$n_0(\varepsilon)-$ko‘rsating**)** isbotlang.

1. $x_n=\frac{3n-2}{2n-1},\ a=\frac{3}{2};$	11. $x_n=\frac{6n}{3n+1},\ a=2;$
2. $x_n=\frac{4n-1}{2n+1},\ a=2;$	12. $x_n=\frac{4n-3}{2n+1},\ a=2;$
3. $x_n=\frac{8n+3}{4n-1},\ a=2;$	13. $x_n=\frac{n+1}{1-2n},\ a=-\frac{1}{2};$
4. $x_n=\frac{7n-3}{2n+1},\ a=\frac{7}{2};$	14. $x_n=\frac{6-5n}{10n+7},\ a=-\frac{1}{2};$
5. $x_n=\frac{2n-5}{3n+4},\ a=\frac{2}{3};$	15. $x_n=\frac{4-n^2}{n^2+3},\ a=-1;$
6. $x_n=\frac{5n-4}{n+1},\ a=5;$	16. $x_n=\frac{n}{5n-1},\ a=\frac{1}{5};$
7. $x_n=\frac{3+4n^2}{3-2n^2},\ a=-2;$	17. $x_n=\frac{15n+4}{3-5n},\ a=-3;$
8. $x_n=\frac{5n+6}{3n-4},\ a=\frac{5}{3};$	18. $x_n=\frac{2-3n^2}{5n^2+3},\ a=-\frac{3}{5};$
9. $x_n=\frac{8-n^2}{1+2n^2},\ a=-\frac{1}{2};$	19. $x_n=\frac{1+3n^2}{-2+4n^2},\ a=\frac{3}{4};$
10. $x_n=\frac{n^3+3}{2n^3-4},\ a=\frac{1}{2};$	20. $x_n=\frac{3n-8}{4+2n},\ a=\frac{3}{2};$

a) Sonli ketma-ketlikning limitini toping.

1. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{3n^2-2n+4}{2+n+6n^2}$.	16. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(3n-1)^3-(2n+3)^3}{(n+3)^3}$.
2. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{4n^3+3n^2-1}{5n^2+4n+2}$.	17. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{8n^3-2n}{(n+1)^4+(n-1)^4}$
3. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(3-n)^2+(3+n)^2}{(3+n)^2-(3-n)^2}$.	18. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+6)^3-(n+2)^3}{(2n+3)^2}$.
4. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+2)^4-(n-2)^4}{(n+2)^4+(n-2)^4}$.	19. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+2)!+(n+1)!}{(n+2)!-(n+1)!}$.
5. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+1)!+n!}{(n+2)!}$.	20. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(3n+4)^3-(n+5)^3}{(2n+3)^3+(3n-1)^3}$.
6. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+1)!}{(n+2)!-(n+1)!}$.	21. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+9)^2+(3n-1)^2}{(2+n)^3+(n-1)^3}$..
7. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(3+n)^4-(2-n)^4}{(2-n)^4+(1+n)^4}$.	22. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(2n-1)^3+(2n+3)^3}{(2n-1)^2+(2n+3)^2}$. .
8. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+1)^3-(n+1)^2}{(n-1)^4-(n+1)^3}$.	23. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+2)^4-(n-2)^4}{(n+5)^2+(n-5)^2}$.
9. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(6-5n)^2+(6+5n)^2}{(n+3)^2-(1-n)^2}$.	24. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{n^3-(n-1)^3}{(n+2)^4+n^4}$.
10. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(3+2n)^3-8n^3}{(2+3n)^2+4n^2}$.	25. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+1)^2+(n-1)^2}{(2n+1)^2+(2n-1)^3}$.
11. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(3+n)^3}{(n+2)^2-(n+1)^3}$.	26. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(3n+16)^4}{(2n+1)^3-n^3}$.
12. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+1)^2+(n-1)^2-(n+3)^3}{(4+n)^3}$.	27. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(3n+1)^3-(2n-3)^3}{n^3-4n}$.
13. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{2(n+1)^3-(n-2)^3}{n^3+3n^2+4}$.	28. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+1)^2-(n-1)^2}{(2+n)^2+(n+1)^2}$.
14. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(n+5)^3+4(n-5)^3}{(n+3)^3}$.	29. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(2n+3)^3+(n-3)^3}{n^4+2n^2+3}$.
15. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(2n+1)^2+(2n-1)^2}{(3n+2)^2}$.	30. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(2n+3)^4+(n-1)^4}{(3n+2)^3-(n+1)^3}$.

b) Sonli ketma-ketliklarning limitini toping.

1. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt[3]{n^2+2n-1}}{n+2}$.	16. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{n\sqrt[3]{7n}-\sqrt[4]{81n^8-1}}{\left(n+4\sqrt{n}\right)\sqrt{n^2-5}}$.
2. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt[3]{n^2+n}}{n+1}$.	17. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt[3]{n^3-7}+3\sqrt[3]{n^2+5}}{\sqrt[4]{n^3+3}+\sqrt{n+1}}$.

3. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\left(\sqrt{n^2+1}+n\right)^2}{\sqrt[3]{n^6+1}}$.

4. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{n^3-2n^2+1}+\sqrt[3]{n^4+1}}{\sqrt[4]{n^6+6n^5+2}-\sqrt[5]{n^7+3n^3+1}}$.

5. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{n\sqrt[3]{5n^2}+\sqrt[4]{n^3+2}}{\left(n+\sqrt{n}\right)\sqrt{7-n+n^2}}$.

6. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{n-1}-\sqrt{n^2+1}}{\sqrt[3]{3n^3+3}+\sqrt[4]{n^5+1}}$.

7. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{n^3+1}-\sqrt{n-1}}{\sqrt[3]{n^3+1}-\sqrt{n-1}}$.

8. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt[3]{n^2-1}+7n^3}{\sqrt[4]{n^{12}+n+1}-n}$.

9. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{3n-1}+\sqrt[3]{125n^3+n}}{\sqrt[5]{n}-n}$.

10. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{5n+2}-\sqrt[3]{8n^3+5}}{\sqrt[4]{n+7}-n}$.

11. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{n\sqrt[4]{3n+1}+\sqrt{81n^4-n^2+1}}{\left(n+\sqrt[3]{n}\right)\sqrt{5-n+n^2}}$.

12. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{n+3}-\sqrt{n^2-3}}{\sqrt[3]{n^5-4}-\sqrt[4]{n^4+1}}$.

13. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt[3]{n}-9n^2}{3n-\sqrt[4]{9n^8+1}}$.

14. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{n^5+3}-\sqrt{n-3}}{\sqrt[5]{n^5+3}+\sqrt{n-3}}$.

15. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{4n+1}-\sqrt[3]{27n^3+4}}{\sqrt[4]{n}-\sqrt[3]{n^5+n}}$.

18. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{3n^2-\sqrt[3]{n^4}}{\sqrt{n^4+n^3+1}-3n}$.

19. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{n^4+3}+\sqrt{n+3}}{\sqrt{n^3+4n}-\sqrt{n+3}}$.

20. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt[3]{n^2+2n}+\sqrt{n+3}}{\sqrt{n+5}}$.

21. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{n\sqrt[3]{n}+\sqrt{16n^4+3}}{\left(n+3\sqrt{n}\right)\sqrt{n^2-n+3}}$.

22. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt[3]{n^2+1}-3n^2}{n-\sqrt{n^2+n+2}}$.

23. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt[3]{n^2+2}-3n\sqrt{n}}{\sqrt{n^4-n+2}}$.

24. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{n\sqrt[3]{64n^2+3}-\sqrt[3]{n^6+4}}{\left(n-\sqrt{n}\right)\sqrt{n+n^2}}$.

25. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{n^2+6}-\sqrt{n^2-6}}{\sqrt[3]{n^3+6}+\sqrt{n^2-6}}$.

26. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{n+2}-\sqrt[3]{n^3+2}}{\sqrt[6]{n^5+3}-\sqrt[5]{n^5+7}}$.

27. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt{n+1}-\sqrt[3]{n^3+1}}{\sqrt[4]{n+1}-\sqrt[5]{n^5+1}}$.

28. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{n!+(n+1)!}{(n+2)!+(n+1)!}$.

29. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{n\sqrt[3]{n^2+1}-\sqrt{n}}{\sqrt{3-n}+n\sqrt{n}}$.

30. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{n\sqrt{n^2+1}-\sqrt{n^4+1}}{\left(3n^2+2\right)\left(\sqrt[3]{n^6+1}\right)}$.

d) Sonli ketma-ketliklarning limitini toping.

1. $\lim\limits_{n\to\infty}\left[\dfrac{1+3+5+...+(2n-1)}{n+1}-\dfrac{2n+1}{2}\right]$.

2. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\frac{1}{3}+\frac{1}{3^2}+...+\frac{1}{3^n}}{\frac{1}{2}+\frac{1}{2^2}+...+\frac{1}{2^n}}$.

11. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{1-3+5-7+9-11+...+(4n-3)-(4n-1)}{\sqrt{n^2+1}+\sqrt{n^2+n+1}}$.

12. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{1+2+3+...+n}{n-n^2-3}$.

13. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{2^n-3^n}{2^{n-1}+3^n}$.

3. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{2^{n+1}+3^{n+1}}{2^n+3^n}$.	14. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{5}{6}+\dfrac{13}{36}+\dfrac{35}{216}+...+\dfrac{2^n+3^n}{6^n}$.
4. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{1+2+3+...+n}{\sqrt{9n^4+1}}$.	15. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{1-2+3-4+5-6+...+(2n-1)-2n}{n}$.
5. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(2n+1)!+(2n+2)!}{(2n+3)!}$.	16. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{2+4+6+...+2n}{1+3+5+...+(2n-1)}$.
6. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{1+3+5+...+(2n-1)}{1+2+...+n}$.	17. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{7^n+2^n}{2^n-7^n}$.
7. $\lim\limits_{n\to\infty}\left[\dfrac{1+3+5+...+(2n-1)}{n+3}-n\right]$.	18. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{1-2+3-4+...-2n}{\sqrt[3]{n^3+3n+4}}$.
8. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{2^n-5^{n+1}}{2^{n+1}+5^{n+2}}$.	19. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{3+6+9+...+3n}{n^2+4}$.
9. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{(3n-1)!+(3n+1)!}{(3n)!(n-1)!}$.	20. $\lim\limits_{n\to\infty}\left(\dfrac{3}{4}+\dfrac{5}{16}+\dfrac{9}{64}+...+\dfrac{1+2^n}{4^n}\right)$.
10. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{\sqrt[3]{n^3+5}-\sqrt{3n^4+2}}{1+3+5+...+(2n-1)}$.	21. $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{n!+(n+2)!}{(n-1)!+(n+2)!}$.

e) Quyidagi ketma-ketlikning limitini toping.

1. $\lim\limits_{n\to\infty}\left(1-\dfrac{4}{n}\right)^n$.	16. $\lim\limits_{n\to\infty}\left(\dfrac{n^3+1}{n^3-1}\right)^{2n-n^3}$.
2. $\lim\limits_{n\to\infty}\left(\dfrac{n+2}{n-2}\right)^n$.	17. $\lim\limits_{n\to\infty}\left(\dfrac{12n+5}{12n-3}\right)^n$.
